

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**X RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

NOYABR, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, noyabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 10-son (noyabr, 2025-yil). – 33 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 17-noyabr

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Orifboyev Abdullaxon

TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH SOHASIDA XALQARO TASHKILOTLAR BILAN
HAMKORLIKNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 4-7

TARIX FANLARI

Ungboyeva Barno

O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIY KINOSTUDIYALAR FAOLIYATI8-12

Norov Shuhrat

HUDUDLARDA YOSHLARNING IJTIMOIIY VA IQTISODIY FAOLLIGI (ZARAFSHON VOHASI
VILOYATLARI MISOLIDA) 13-16

YURIDIK FANLAR

Abdullaeva Sabokhat

FATF STANDARDS AND THE IMPLEMENTATION OF THE TRAVEL RULE IN PREVENTING
CRYPTO-RELATED MONEY LAUNDERING 17-24

PEDAGOGIKA FANLARI

Толибова Феруза

ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ И УСПЕВАЕМОСТИ
ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА 25-32

TARIX FANLARI

O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIY KINOSTUDIYALAR FAOLIYATI

Ungboyeva Barno O'rozovna

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zbekiston milliy metrologiya instituti ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha direktor maslahatchisi

Email: barnoungbaeva066@gmail.com

Tel: +998977444082

Annotatsiya. Maqola muallifi mustaqillikdan so'ng milliy kinoning rivojlanishi to'g'risida tahliliy mulohaza yuritib, o'zbek kinosining milliy lashuvi, xususiy kinostudiylarning faoliyati hamda filmlarning prokati masalalarini tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: kinofilm, kinostudiya, melodramma, tarixiy-badiiy filmlar, "xontaxta", davlat, kinoprokat.

ACTIVITIES OF PRIVATE FILM STUDIOS IN UZBEKISTAN

Ungboeva Barno Urozovna

Doctor of Philosophy in History

Advisor to the Director for Research and Innovation Development, National Metrology Institute of Uzbekistan

Annotation. The author of the article analyzes the development of national cinema after independence, analyzing the issues of nationalization of Uzbek cinema, the activities of private film studios, and film distribution.

Key words: film, film studio, melodrama, historical and fiction films, "hontakhta", state, film distribution.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i10/n02>

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, barcha sohalarda milliy lashtirish siyosati boshlandi. O'zbek xalqining necha asrlik milliy qadriyatlari negizida yangicha milliy siyosat yuritish kun tartibidagi eng asosiy masalalardan biri bo'lishi tabiiy edi. Xususan, kinoijodkorlar oldida ham xalqimizga, ayniqsa yosh avlodga o'z tariximizni, mentalitetimizni, milliy urf-odat va ananalarimizni singdirgan holda milliy kinoni yaratish vazifasi turardi. Bu bo'yicha dastlabki yillarda hukumat tomonidan bir nechta Farmon va Qarorlar chiqarilgan bo'lsa-da, ushbu soha davlat e'tiboridan uzoqlashdi. Xususiy studiyalar ko'paydi. Ular tomonidan esa turli xil: tomoshabinbop, sevgi-muhabbat, oilaviy mojarolar, yengil-elpi, maishiy mavzularda tijorat filmlari yaratildi. Qolaversa, ekranlarimizni xorij teleseriallari egalladi. [1]

Ammo shuni ta'kidlash lozimki, bu davrda o'ziga xos bo'lgan, xalqchil milliy filmlar suratga olindi va tomoshabinlar tomonidan hali-hanuz sevib tomosha qilinadi.

1991-yillardan 2000-yillargacha hali ko'pchilik kinorejissyorlar va senariynavislar eski tuzumning "shaklan milliy – mazmunan sotsialistik" mafkurasi aqidasidan chiqa olmayotgan davrlar edi. Lekin, jamiyatning tabiiy tadrijiy rivojlanishini bir zumda buzib yuborish qudratiga ega inqilob va sovet davlati siyosatining ozod inson ruhiyatiga keskin ta'sir etgan salbiy

oqibatlarini qayta idrok etgan kinorejissyorlar – Yu.Roziqov, S.Nazarmuhammedov, Z.Musoqov, Yo.To'ychiyev va A.Shahobiddinovlarning o'tgan asr siyosati qurboni bo'lgan inson qismati yoritilgan asarlarida milliy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy voqealarga munosabati aniq namoyon bo'ldi. [2]

Tobora rivojlangan xususiy kinostudiyalar o'z filmlarini kinoteatrlarda namoyish qilib, prokat qilardilar. Milliy kinoprokatning asosiy qismini xususiy kinostudiyalar ishlab chiqarayotgan filmlar tashkil etardi. 2000-2010-yillarda ko'pchilik tomoshabinlar sevib tomosha qilgan komediya, oilaviy melodramma janrlaridagi eng kassabop filmlar asosan xususiy kinostudiyalar tomonidan suratga olinar, moliyalashtirish manbai esa xususiy tadbirkorlik sub'ektlari edi.

2012-2017-yillarga kelib, xususiy kinostudiyalar chiqarayotgan kinomahsulotlarining soni kundan-kunga oshib, sifati esa keskin pasaya boshladi. Natijada, o'zbek kinosida "xontaxta" degan psevdolanr va tushuncha paydo bo'ldi. Tabiiyki ilg'or tomoshabinni milliy kinobozordagi bu kabi takliflar qoniqtirmadi. Yangi O'zbekiston davrida ko'plab sohalar qatori kinematografiyaning ham isloh qilinishi, davlat buyurtmasi asosida suratga olinayotgan filmlarning saviyasi, sifati, tomoshabopligi, janr nuqtai nazaridan xilma-xilligi "xontaxta" filmlarni sekin-astalik bilan kinoteatrlardan siqib chiqara boshladi.

Davlat buyurtmasi asosida suratga olinayotgan filmlar nafaqat davlat kinostudiyalari, balki o'z portfelida sifatli kinomahsulot chiqargan, o'z nomiga va tajribasiga ega bo'lgan xususiy kinostudiyalarga ham berila boshlandi. Biroq shu bilan birga xususiy kinobozordan va kinostudiyalardan nodavlat moliyalashtirish manbalari ham chekinganini ta'kidlash lozim. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat olib borayotgan yetakchi kinostudiyalarning asosiy va deyarli yagona buyurtmachisi davlat bo'lib qoldi. Ularning hozirgi faoliyatiga nazar solsak, (ayniqsa koronavirus pandemiyasidan keyin) davlat buyurtmasi asosida ishlanayotgan filmlardan tashqari, asosan, turli tijoriy videoroliklar, reklama kontentlari bo'lib qoldi.

2021-2023-yillarda xususiy kinostudiyalarni Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi qo'llab quvvatlagan. Markaz nodavlat notijorat tashkilot bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-apreldagi "Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 6202-sonli Farmoniga asosan tashkil etilgan. Farmonga asosan Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi tomonidan kinostudiyalarni jalb etgan holda filmlar ishlab chiqarishni tashkil qilgan va xususiy kinostudiyalar taklif qilayotgan kinoloyihalarni o'z qoshida ta'sis etilgan pitching komissiyasi muhokamasidan o'tkazgan holda ma'lum muddat qisman moliyaviy qo'llab quvvatlab kelgan. [3]

Bunda moliyalashtirish sharti film byudjetining 50 foizi xususiy kinostudiya tomonidan jalb qilingan homiylik mablag'i bo'lsa, qolgan 50 foizi Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi mablag'laridan bo'lgan. Biroq 500 million so'mdan oshmagan miqdorda. Bu filmlar asosan kichik byudjetli filmlar edi. Ulardan kassa yig'ish oson ish emas. Sababi film byudjeti qancha kichik bo'lsa, uning ijodiy guruhi tarkibi ham, uning tasviriy yechimlari ham, zamon talabiga mos tomoshabopligi ham shu qadar bo'lishi tabiiy. Yetakchi xususiy kinostudiyalar ijodkorlari esa davlat buyurtmasi asosida Kinematografiya agentligi tomonidan moliyalashtiriladigan filmlardan umidvor bo'lgan. Aynan shuning uchun ham ular faoliyat ko'rsatadigan xususiy kinostudiyalar homiy topa olmagan taqdirda davlat kinostudiyasi orqali loyihalarini suratga olishgan.

1991-yildan boshlab, ayni vaqtgacha respublikamiz hududida faoliyati sifatli va a'lo darajadagi kinostudiyalar mavjud bo'lib, ulardan eng yetakchi va mashhurlari quyidagilardir:

"Vatan" kinostudiyasi 1991-yilda "Vatan" davlat unitar korxonasi (DUK) bo'lib tashkil topgan. Keyinchalik 2005-yilda mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) bo'lib o'zgargan. Ta'sischi va studiya rahbari Hilol Nasimov. Kinostudiya faoliyati davomida 20 ga yaqin kino mahsulot ishlab chiqargan bo'lib, so'nggi yillarda 4 ta yirik davlat buyurtmasi asosida "Hayot", "Meros", "Vatan ostonasi" va "Sevdo" kabi badiiy filmlarni suratga olgan. Kinostudiyaning hozirgi vaqtdagi faoliyatiga e'tibor qaratilsa, u oxirgi paytlarda faqat davlat buyurtmasi bilan filmlar ishlab chiqarmoqda. Kinorejissyor Hilol Nasimov filmlari Avstraliya, Braziliya, Hindiston, Rossiya kabi qator davlatlarda xalqaro kinofestivallarda gran-pri va boshqa sovrinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. [4]

"Ramz-film" studiyasi 2006-yilda tashkil topgan. Asoschi va rahbar Muzaffarxon Erkinov. Kinostudiya ilk ish faoliyatini boshlaganda, o'z hisobidan ko'plab badiiy filmlar ishlab chiqargan. Kinostudiya davlat buyurtmasi asosida "Abdulla Avloniy", "Abdulla Oripov", "Maxtumquli Firog'iy" tarixiy-badiiy filmlarini suratga olgan. Kinorejissyor Muzaffarxon Erkinov tomonidan suratga olingan kinokartinalar ko'plab xalqaro kinofestivallarda munosib sovrinlarga ega bo'lib kelmoqda. Jumladan, "Saodat", "Aydinlar", "Maxtumquli Firog'iy", "Abdulla Oripov" kabi filmlari bir qator nufuzli xalqaro festivallarda sovrinli o'rinlarga sazovor bo'lgan. [5]

"Ezgu-film" va "Kinomaniya" kinostudiyalari. Ta'sischi va rahbar Zafar Yo'ldoshev. Kinostudiya o'z faoliyatini xususiy filmlar ishlab chiqarishdan boshlagan. 10 dan ortiq tomoshabop hamda kassabop filmlarni yaratgan. 2017-2023-yillar hisobida kinostudiya tomonidan davlat buyurtmasi asosida 3 ta yirik tarixiy-badiiy filmlar ishlab chiqargan. Bular "Islomxo'ja", "Ilhaq" va "Bahodir Yalangto'sh" filmlari. Kinostudiya xalqaro standartlarga javob bera oladigan zamonaviy texnik imkoniyatlarga ega. Ushbu kinostudiyalarning bosh rejissyori Jahongir Ahmedov o'z filmlari bilan xalqaro festivallarda bir qancha mukofotlarni qo'lga kiritib kelmoqda. [6]

"Last-media" kinostudiyasi 2013-yil tashkil topgan. Asoschisi va rahbar kinoprodyuser va ssenariynavis Nilufar Xudoyberdiyeva. Dastavval ushbu kinostudiya "Firibgar oshiq" badiiy filmi bilan ish boshlagan. Ayni vaqtga qadar 10 ga yaqin badiiy filmlarni tomoshabinlar e'tiboriga havola etgan. Davlat buyurtmasi asosida "Millioner Jonibek", "Qariqiz" va "Iroda" filmlarini suratga olgan. 2024-yil Nilufar Xudoyberdiyeva Ozarbayjonda bo'lib o'tgan xalqaro tanlovda "Ayol prodyuser" nominatsiyasini qo'lga kiritgan.

"Mir Ali Cinema" kinostudiyasi 2015-yilda tashkil topgan. Asoschi va rahbar kinoprodyuser Mirjamol Mirzaahmedov. 2015 dan 2022-yilgacha "Mir Ali Cinema" nomi bilan faoliyat yuritgan. "Ayg'oqchi kampir", "Labbay rais", "Temur" va "Men terrorchi emasman" kabi badiiy filmlarini suratga olgan. Ushbu kinostudiya 2022-yildan "Minorfilm" kinostudiyasi bo'lib o'zgargan. Ayni vaqtda rahbari kinoprodyuser va rejissyor Nodir Mo'minov hisoblanadi.

"Dilshoh media" kinostudiyasi 2016-yilda tashkil topgan. Asoschisi va rahbari kinoprodyuser Mahmud Erkaboyev, kinostudiya kino ishlab chiqarish texnikalari bilan yetarli darajada ta'minlangan. Ma'lumot uchun kinostudiya tomonidan davlat buyurtmasi asosida "Qo'qon shamoli" va "Ayol qismati", "Sud'ya" filmlari suratga olingan. Bundan tashqari kinostudiya "Sen uchun" va "Sud'ya" milliy ko'p qismli seriallari hamda "Kulba", "Salom, rashk"

kabi filmlarini ishlab chiqargan. Ayni vaqtda "Jomiy va Navoiy" filmi ustida ish olib bormoqda. [7] [8]

"Fan Entertainment" kinostudiyasi. Asoschisi va rahbari Baxtiyor Fattohov. Tashkil etilganiga hali ko'p bo'lmagan kinostudiya o'z hisobidan kinomahsulotlarini ishlab chiqarib kelmoqda. Davlat buyurtmasi asosida "Bardosh" badiiy filmi suratga olindi. Kinostudiyaning kino bozoridagi eng omadli loyihasi bu – "Qodirxon" seriali. Bundan tashqari, "Jurnalist", "Soya", "Birinchi muhabbat", "Qaynonamdan qarzim bor", "Tinchlan, jigarim" "Bugun choyxona" kabi ko'p qismli seriallar, "Yasha, xotin", [9] "Zamonaviy sovchilar - 4" badiiy filmlarni ham ishlab chiqargan. 2022-yilga kelib O'zbekiston milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda "Sarobga yo'l" badiiy filmi ishlab chiqargan.

"Pandaproducion" kinostudiyasi 2017-yilda ochilgan. Asoschisi Azamat Ahrorov. Ushbu kinostudiya ham kino bozorida o'z o'rniga ega bo'lib, o'z hisobidan film va seriallar ishlab chiqaradi. "Mening sevgilim ayg'oqchi" "Notanish qotil", "Notanish qotil-2", "Lolagulim", "Hech kimga aytma!" filmlari kinostudiya mahsulotlari hisoblanadi. Kinorejissyor va aktyor Azamat Ahrorov filmlari yoshlar tomonidan sevib tomosha qilinishi bilan mashhurdir. [9]

"Sintez film" kinostudiyasi. Asoschi va rahbar Xurshid Alixo'jayev. Kinostudiya faoliyatini montaj va grafika ishlaridan boshlagan. 2020-yilga kelib kinostudiya kino ishlab chiqarishni boshlaydi va ilk marta davlat buyurtmasi asosida "Tengiz" filmi suratga olgan. Bundan tashqari, 2021 yilda "Xalq yuragi" turkumi ostida "Yo'lbars izidan" (Zahiriddin Muhammad Bobur) hujjatli filmi ishlab chiqaradi. Studiya yosh rejissyor Shokir Xoliqovga "Messi" qisqa metrajli filmi, "Qiz va bulut" animatsion filmi ishlab chiqarishi uchun amaliy va moliyaviy ko'mak bergan. Shuningdek, rejissyorga kinofestivallarda O'zbekiston nomidan ishtirok etishi uchun o'z mablag'lari hisobidan yordam bergan. [10]

"Ko'zgu film" studiyasi. Asoschi va rahbar Quadratilla Fayzullayev, 10 yil ilgari kino bozoriga kino yetkazib berish bo'yicha bu kinostudiyaga yetadigani bo'lmagan. "Ko'zgu film" 10 yil avval yiliga 4 ta film ishlab chiqargan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu ko'rsatgich tushib ketdi. Davlat buyurtmasi asosida 2 ta: "Maktab hayotim" va "Puling bo'lsa..." va "Ipak" badiiy filmlarini suratga olgan. [11]

"Star Fox" – asoschi va rahbar Ruslan Mirzayev. Kinostudiya doimo o'z mablag'lari hisobidan film va seriallar ishlab chiqarib kelgan. Turk aktyorlari bilan hamkorlikda ishlangan 20 qismli "Ishq o'yinlari", shuningdek, "Qo'rqma yurak", "Yuraklar jangi" "Yur, muhabbat" kabi serillari bilan kino bozorida o'z o'rnini topgan. 2023-yil kinostudiya tomonidan suratga olingan komediya janridagi "Salom yanga" badiiy filmi esa kinoteatrlarda to'xtovsiz namoyish qilingan. [12]

"Spectre studio" – asoschi va rahbar Davronxo'ja Abdug'aniyev, kinostudiya asosan davlat buyurtmasi asosida filmlar suratga olmoqda. Jumladan, "Xalq yuragi", "Abdulla Oripov", "Alisher Navoiy", "Inson" (ko'p qismli serial) hujjatli filmlari bilan bir qatorda "Bir kunlik to'y" hamda "Uch qahramon" badiiy filmi suratga olgan. Ushbu kinostudiya tomonidan suratga olingan filmlar ham xalqaro kino maydonida munosib e'tirof etib kelinmoqda. [13] [14]

Bundan tashqari, "Buxoriylar", "Olovnur Media", "Sinema of Sentral Asia" kabi bir nechta xususiy kinostudiyalar bugungi kunda ham o'z faoliyatini davom ettirib, filmlarni tomoshabinlar e'tiboriga havola etib kelishmoqda.

Ta'kidlash lozimki, xususiy kinostudiyalarning faoliyati milliy kinoning rivojlanishi uchun katta turtki bo'ladi. To'g'ri, o'ta sayoz olinayotgan filmlar ham talaygina. Bunday filmlar

bo'lishi tabiiy. Masalan, har yili Hindistonda 2000 ga yaqin badiiy filmlar yaratilmoqda. Bu degani Hindistonda AQSh va Yevropa davlatlariga qaraganda ikki barobar ko'p kino suratga olinadi deganidir. YUNESKO statistika instituti ma'lumotlariga binoan, masalan, faqat 2017-yilning o'zida Hindiston kino bozoriga 1986 ta suratga olingan film chiqdi. Bu filmlardan Hindiston kinoindustriyasi \$2,39 mlrd daromad ko'rgan. Bu filmlar o'tgan asrdagi melodrama tarzidagi qo'shiq va raqslarga boy bo'lgan ko'plab sayoz hind filmlariga o'xshamaydi, balki hozirgi zamon talablariga javob beruvchi filmlardir. [15]

Shunday ekan, bizda ham suratga olingan filmlarga tomoshabinning o'zi baho beradi. Endigina sohaga kirib kelgan yosh rejissyor va malakali rejissyorlar o'rtasida olingan filmlar albatta farqlanadi. Buni to'g'ri qabul qilishimiz lozim. Ammo, afsuski O'zbekistonda bugungi kunda faqat davlat puliga kinofilmlar suratga olish o'z-o'zini oqlamayapti. Bir marta prem'erasi o'tgandan so'ng kinofondida chang bosib yotgan filmlar ham talaygina.

Bugungi kunda xususiy kinostudiyalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yetakchi xususiy kinostudiyalarga ko'proq ijodiy va texnik sharoit yaratib berish uchun maxsus davlat grantlari ajratilishini tashkil qilish lozim. Xususiy kinobozorni rivojlantirish va kinoteatrlarga avvalgidek kinoixlosmandlar oqimini ko'paytirish uchun xususiy kinostudiyalarni hamda xususiy sektorda faoliyat olib borayotgan saviyali va iqtidorli ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash kerak.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://xs.uz/uzkr/post/kino-tarbiyaning-zamini>
2. <https://oyina.uz/kiril/article/1988>
3. <https://lex.uz/ru/docs/5374446?ONDATE=07.06.2024>
4. <https://yuz.uz/news/meros-filmi-yana-ikkita-xalqaro-sovrinni-qolga-kiritdi>
5. <https://uza.uz/uz/posts/ozbek-kinochilarinin>
6. <https://xs.uz/uzkr/post/ilhaq-filmi-belarusdagi-khalqaro-kinofestivalda-2-ta-eng-jirik-mukofotni-qolga-kiritdi>; <https://ms-my.facebook.com/Tojikfilm/posts/4160905477325339/>
7. https://www.facebook.com/dilshohmedia/?locale=az_AZ
8. <https://kun.uz/kr/63843688>
9. <https://uza.uz/uz/posts/qorqut-ota-xalqaro-kinofestivalida-kinoizhodkorlarimiz-4-ta-xalqaro-mukofotni-qolga-kiritdi> 422786
10. <https://mover.uz/video/embed/XgkLnfls>
11. <https://www.youtube.com/playlist?list=PL->
12. <https://www.instagram.com/sintezfilm/>
13. <https://t.me/s/uzbekkinopress?q=%D>
14. <https://www.kino-teatr.ru/kino/producer/> ; <https://kun.uz/kr/63843688>
15. <https://www.facebook.com/groups/338165787126413/posts/1514188936190753/>

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, noyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 10-son (noyabr, 2025-yil). – 33 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 17-noyabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.